



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol.4 Issue 08 | pp.47-51 | ISSN:2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL TRANSPORTINING O'RNI

Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti tayanch doktoranti



Annotatsiya: Maqolada transport infratuzilmasining tarkibi bo'lmish avtomobil transportining o'rnini, funksiyalari hamda xususiyyatlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan bo'lib, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ham jamlangan.

Kalit so'zlar: transport, avtomobil transporti, transport tuguni, transport oqimi, milliy iqtisodiyot.

Аннотация: В статье содержится информация о роли, функциях и характеристиках автомобильного транспорта, который представляет собой структуру транспортной инфраструктуры, а также обобщены его макроэкономические показатели.

Ключевые слова: транспорт, автомобильный транспорт, транспортный узел, транспортный поток, народное хозяйство.

Abstract: The article contains information about the role, functions and characteristics of road transport, which is the structure of the transport infrastructure, and also summarizes its macroeconomic indicators.

Key words: transport, automobile transport, transport node, transport flow, national economy.

Kirish.

AVTOMOBIL TRANSPORTI -yuk va yo'lovchilarni relsiz yo'llarda tashishga mo'ljallangan transport turi. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida keng foydalaniladi. Bajaradigan ishiga qarab umumiy foydalanilmaydigan (ayrim korxonalar, tashkilotlar uchun xizmat qiladigan) avtomobil transporti hamda qaysi tashkilotga mansubligidan qat'i nazar yo'lovchi va yuk tashuvchi umumiy foydalanishdagi avtomobil transportiga bo'linadi. Shuningdek shaxsiy foydalanishdagi yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ham mavjud. Avtomobillarning har qanday yo'llarda yura olishi, yo'lni tez o'zgartira olishi, yuk ortish va tushirish joylariga bevosita bora olishi, yuk hamda yo'lovchilarni bir transport turidan ikkinchisiga o'tkazmay tashishga imkon beradi. Natijada yo'lovchi va yuk tashish tezlashadi.

Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo'jaligi, markazlashgan tartibda xalqaro, shaharlararo va mahalliy yo'llarda tashishda qo'llaniladi. Avtomobil transporti aviatsiya, dengiz va daryo transporti, shuningdek temir yo'l transporti bilan uzviy bog'langan.

Avtomobil transporti uncha uzoq bo'lmagan masofalar uchun foydalanishda eng qulay transport turi hisoblanadi. Shu bilan birga boshqa transport turlarida tashish noqulay bo'lgan yuklar, xususan, tez buziladigan mahsulotlarni uzoq masofalarga tez va qulay yetkazib berishda ham ko'p foydalaniladi. Avtomobil transporti XIX asr oxirida paydo bo'ldi, XX asrning 20-yillaridan qisqa masofalarga yuk va yo'lovchi tashishda temir yo'l va daryo transporti bilan raqobat qila boshladi. Avtomobil sanoatining rivojiga qarab, tez sur'atlarda taraqqiy etdi. [1]

Mamlakatlar avtomobil parkining asosiy qismi yirik ixtisoslashtirilgan yuk va yo'lovchi tashish korxonalarini va birlashmalari tarkibiga kiradi. Bu esa mehnat unumdorligini yuqori sur'atlarda o'stirish va Avtomobil transporti vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tashilgan yuklarning umumiy hajmida Avtomobil transporti hissasi katta salmoqqa ega. Buyuk Britaniya, Frantsiya, GFR, Yaponiya, Kanada, Rossiyada Avtomobil transporti taraqqiy etgan. AQShda yuk avtomobil parki turli sanoat va savdo kompaniyalari, korxonalar va ayrim shaxlarga tegishli bo'lib, jami avtotransport vositalarining 10% umumiy foydalanishdagi yuk tashish kompaniyalariga to'g'ri keladi. O'zbekistonda Avtomobil transporti XX asr boshlarida paydo bo'ldi, unga qadar ot-ulov asosiy transport vositasi bo'lgan. [2]

Dastlabki avtobus qatnovi 1906 yilda Farg'ona — Marg'ilon marshrutida yo'lga qo'yilgan. Toshkentda birinchi avtobus 1909 yil dekabrda qatnay boshladi, 1910 yil chet ellarda ishlab chiqarilgan 8 ta kichik va 1 ta 40 o'rinli avtobus ishladi. 1921 yilda Avtomobil transporti ixtiyorida 40 yengil va 15 yuk avtomobili hamda Toshkent avtomobil ta'mirlash ustaxonasi bo'lgan. 30-yillarda Avtomobil transporti rivojlanishi bilan qattiq qoplamali yo'llar qurilishi boshlandi, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish korxonalarini, kadrlar tayyorlaydigan o'quv yurtlari ochildi. 1939 yil 25 iyulda O'zbekiston avtomobil transporti xalq komissarligi tashkil etildi. 50-yillarda avtotransportda yuk va yo'lovchilar tashish o'sdi. 60-80-yillarda respublikada avtotransport vositalarining tur tarkibi ko'paydi. 1991 yilga qadar O'zbekiston xalq xo'jaligida asosan Rossiya ("Zil", "Moskvich" — Moskva shahri; "Gaz" yuk va "Volga" yengil avtomobillari — Nijniy Novgorod shahri; "Kamaz" — Naberejniye Chelni shahri; "Jiguli" — Tolyatti shahri; "UAZ" — Ulyanovsk shahri; "Ural" — Chelyabinsk viloyati Miass shahri; "PAZ" — Pavlovo shahri), Ukraina ("LAZ" — Lvov shahri; "KRAZ" — Kremenchuk shahri; "ZAZ" — Zaporozhe shahri), Belorussiya ("Maz" — Minsk shahri; "BelAZ" — Jodino shahri), Gruziya ("Kaz" — Kutaisi shahri) respublikalarida ishlab chiqarilgan yuk va yengil avtomobillari, avtobuslari ishlatildi. O'zbekiston Respublikasining yuk mashinalari saroylarida vazifasiga ko'ra ixtisoslashtirilgan (o't o'chirish, un, paxta, don, qurilish materiallarini tashish, sanitariya va boshqalar) avtomobillar bor. Respublikada xalq xo'jaligining sanoat, qishloq xo'jalik, qurilish, suv xo'jaligi, aloqa, savdo, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi, madaniyat, mudofaa va boshqa tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan yirik avtotransport korxonalarini mavjud. Ular vazifasiga ko'ra umumiy foydalanilmaydigan ichki ishlab chiqarish avtomobil transportiga kiradi.[1]

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda avtomobil transporti to'g'risida qonun qabul qilingan bo'lib, 31 moddadan iborat. Ushbu qonunda: avtomobil transportining mulk shakllari, avtomobil transportining yerlari, tashish turlari, avtomobil transporti faoliyatini

davlat tomonidan tartibga solib turilishi, avtomobil transportida qonuniy javobgarlik hamda shu kabi ma'lumotlar keltirib, sharxlab o'tilgan. Shu asnoda iqtisodiy ko'rsatkichlarga o'tib ularni tahlil qilsak.

2024-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 49,4 % ni tashkil etdi.

Shu jumladan:

kichik biznes va mikrofirmalar 32,8 %;

yakka tartibdagi tadbirkorlar 16,6 %.[4]

1-rasm. [4]

Avtotransport xizmatlari hajmi (yillik)/Объем услуг автотранспорта (годовая)/Volume of motor transport services (annual)

Klassifikator	Klassifikator_ru	Klassifikator_en	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	5124,0	6462,4	8054,4	10313,9	12954,7	16032,1	19216,7	20232,9	21786,8	25527,5	28474,1	36253,3	41726,8	50395,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	121,4	168,8	223,9	307,9	405,7	552,1	611,1	633,9	701,4	807,5	860,5	1159,4	1275,4	1557,0
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	379,7	499,4	646,5	841,9	1096,1	1385,9	1647,7	1742,9	1855,4	2128,9	2441,4	2917,6	3484,7	4149,9
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	378,4	484,0	590,0	770,4	967,4	1214,4	1408,6	1491,9	1639,1	1842,3	2128,1	2621,1	2910,1	3634,2
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	115,1	156,4	214,1	267,8	350,7	435,3	507,7	533,8	596,1	696,0	808,2	1032,5	1125,5	1403,4
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	333,0	432,2	531,4	697,0	927,2	1164,5	1390,2	1460,1	1561,1	1890,7	2111,8	2795,3	3245,7	3877,2
Navoiy viloyati	Навийская область	Navoi region	131,5	172,9	222,7	283,6	350,2	446,0	533,3	555,1	631,0	800,1	865,9	1109,7	1315,7	1616,7
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	211,9	282,3	355,4	467,1	613,3	755,4	993,1	1031,7	1124,6	1330,3	1530,9	2003,9	2395,8	2936,0
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarqand region	665,0	806,5	994,0	1262,8	1606,3	1935,9	2263,9	2379,7	2522,1	2889,3	3252,1	4338,5	5002,6	6093,5
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhondarya region	213,6	270,7	353,7	455,4	589,3	710,3	848,6	903,2	951,1	1090,0	1170,1	1511,9	1755,5	2104,3
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	90,4	118,0	146,8	176,3	211,3	263,3	312,5	327,0	373,2	440,3	506,7	556,6	597,2	688,9
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	805,5	946,3	1139,9	1435,7	1732,4	2133,5	2660,1	2782,1	2911,3	3367,1	3793,4	4856,6	5440,6	6631,6
Farg'ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	387,6	534,2	702,5	933,7	1166,9	1409,2	1759,9	1841,9	1948,5	2261,7	2551,9	3355,2	3876,7	4713,6
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	255,0	335,5	424,8	547,8	686,2	881,1	1045,1	1113,6	1181,9	1370,4	1500,3	1900,7	2209,7	2574,0
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	1035,9	1255,2	1508,7	1866,5	2251,2	2744,6	3234,2	3432,4	3784,9	4605,9	4947,1	6091,6	7090,5	8413,9

(mlrd.so'm hisobida)

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan shuni bilish mumkinki, avtotransportning yillik xizmatlari yillar sayin o'sib kelgan, negaki hozirgi sharoitda transport sanoatining ichidagi avtomobil transportiga talab yuqori. Yo'lovchi tashish, yuk tashishning katta qismlaridan biri aynan shu tarkibga tegishli. Ushbu sohada Toshkent shahri yetakchilik qilib turipti undan keying yana yirik pog'onalarni Toshkent viloyati, Samarqand viloyati hamda Andijon viloyatlari zabt etgan. Eng katta ulushlarning ushbu viloyatlarga tegishli ekanligining asosiy sababi u yerdagi yo'llarning kesimi hamda, infratuzilma, aholi soniga ham bog'liq.

Eng pastki pog'onalar Sirdaryo, Jizzax viloyatlariga tegishli. Negaki ushbu viloyatlarda aholi soni kam hamda foydalaniladigan yerlar hajmi ham anchayin past holatda.

Quyida esa, aynan shu xizmatlarni o'sish sur'atini ko'rib chiqamiz.

2-rasm.[4]

Avtotransport xizmatlarining o'sish sur'atlari (yillik)/Темпы роста услуг автотранспорта (годовая)/Growth rates of motor transport services (annual)

Klassifikator	Klassifikator_ru	Klassifikator_en	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	122,3	118,5	117,6	118,7	116,7	115,9	117,2	102,1	101,6	105,1	101,4	115,5	107,5	107,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	125,0	123,1	118,4	126,2	128,5	129,0	110,1	100,6	102,0	103,3	96,9	122,2	102,8	108,3
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	121,6	117,5	118,9	124,8	120,5	119,1	116,2	102,6	101,8	102,9	104,3	108,4	111,6	105,7
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	117,2	119,1	117,2	122,4	115,3	113,5	113,4	102,9	103,1	100,8	105,0	111,7	103,7	110,8
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	129,7	120,8	124,6	118,8	108,9	114,7	114,0	102,0	102,9	104,7	105,6	115,9	101,8	110,6
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	126,8	121,9	121,7	119,8	119,8	117,6	116,7	101,9	102,3	108,6	101,6	120,1	108,5	106,0
Navoiy viloyati	Навоийская область	Navoi region	130,1	114,5	128,0	123,3	119,3	120,1	116,9	101,0	104,3	113,7	98,4	116,2	110,7	109,0
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	128,5	124,4	120,7	124,5	124,9	118,2	128,5	100,8	103,3	106,1	104,6	118,7	111,7	108,7
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarkand region	122,5	118,4	120,4	122,1	121,6	115,8	114,3	102,0	101,4	102,7	102,3	120,9	107,8	108,1
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhandarya region	120,6	119,7	128,2	114,3	127,7	117,1	116,8	103,3	100,8	102,8	97,6	117,2	108,5	106,4
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	124,4	124,8	117,9	119,2	116,9	117,5	116,0	101,5	109,2	105,8	104,6	99,6	100,2	102,4
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	130,8	113,4	111,2	115,6	114,7	108,7	121,9	101,5	100,1	103,7	102,4	116,1	104,6	108,2
Farg'ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	127,2	125,4	121,7	123,2	122,8	116,5	122,1	101,5	101,2	104,1	102,6	119,3	107,9	107,9
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	117,9	122,8	117,5	125,2	115,1	115,4	116,1	103,2	101,5	104,0	99,5	114,9	108,6	103,4
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	113,7	117,5	111,8	108,4	104,1	116,0	115,2	103,0	101,1	109,1	97,7	111,7	108,7	105,3

(foiz % hisobida)

2024-yilning yanvar-may oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida taksi xizmatlarining ulushi 52,1 % ni yoki 11 trln so'mni tashkil etgan.

Avtomobil transportida yo'lovchi tashishning umumiy hajmida taksi xizmatlarining ulushi 80,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar orasida ushbu xizmat turi umumiy hajmida Toshkent (17,4 %), Samarqand (16,3 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (15 %) nisbatan yuqori ulushga ega.[5]

Avtomobil transportini boshqarish tizimi takomillashtirildi. Aynan qayta tashkil etilgan O'zbekiston Avtomobil transporti agentligi poytaxt va viloyatlardagi shahar yo'lovchi transportini boshqarish departamentlarini o'z tarkibiga qo'shib oldi.

O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi O'zbekiston Avtomobil transporti agentligi («O'zavtotrans» agentligi) etib qayta tashkil etildi. Daryo transport sohasidagi davlat boshqaruvi bo'yicha agentlik vakolatlari (kemachilik registri) Favqulodda vaziyatlar vazirligiga topshirildi. Bu O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 6 martdagi «Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida ko'zda tutilgan.

Hujjatda qayd etilishicha, avtotransport xo'jaliklarini modernizatsiya qilish zamonaviy talablar darajasida emas, sohada ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va intellektual transport tizimlari yetarli darajada joriy etilmayapti. Og'ir yuk tashuvchi avtotransport vositalarining harakatdagi tarkibi parkining eskirganligi yuqoriligicha qolmoqda. Mamlakatning avtotransport xizmatlari eksporti va tranzitini oshirish salohiyatining imkoniyatlari va zaxiralaridan to'laonli foydalanilmayapti.

«Tashish jarayonlari, qatnov jadvalariga rioya etilishi, yo'lovchilar tomonidan yo'l haqini elektron tarzda to'lash samaradorligi, tushumning yig'ilishi va to'laligi ustidan

markazlashtirilgan dispetcherlik boshqaruvi va nazorati tizimi mavjud emas... Avtomobilda tashishlar va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash yuzasidan nazorat choralarining tubdan kuchaytirilishi yo'lovchilar avtotransportida favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik choralar ko'rishni talab etadi», — deyiladi qarorda.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kundagi avtomobil transportida kamchiliklar ham yutuqlar ham bor. Mamlakatimiz transport infratuzilmasiga yildan yilga ko'proq ahamiyat qaratayapti. Negaki, ushbu tarmoq mamlakatning iqtisodiy o'sishiga hamda jahon bozoriga chiqib, u yerda kerakli pog'onani zabt etish muhimdir. Shu sabab avtomobil transporti tarmog'idagi kamchiliklar bartaraf etilib, ijobiy o'zgarishlar davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Soliev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.:Universitet, 2014.
2. Soliev A va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T., 2003.
3. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi . -T.: "Mumtoz so'z", 2010.
4. www.stat.uz
5. www.daryo.uz

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

